

**M.T.O'ROZBOYEV NOMIDAGI MEXANIKA VA INSHOOTLAR
SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.T/FM.61.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TILOVOV OTAJON O'KTAMOVICH

**ELASTIK VA TERMOELASTIK CHEGARAVIY MASALALARNI
KUCHLANISHLARGA NISBATAN SONLI YECHISH**

01.02.04-Deformatsiyalanuvchan qattiq jismlar mexanikasi

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on physical-mathematical sciences**

Tilovov Otajon O'ktamovich

Elastik va termoelastik chegaraviy masalalarni kuchlanishlarga nisbatan sonli yechish.....3

ТИЛОВОВ ОТАЖОН УКТАМОВИЧ

Численное решение упругих и термоупругих краевых задач в напряжениях.
.....23

Tilovov Otajon O'ktamovich

The numerical solution of elastic and thermoelastic boundary problems in stresses.....43

Эълон қилинган ишлар рўйхати

Список опубликованных работ

List of published works.....46

**M.T.O'ROZBOYEV NOMIDAGI MEXANIKA VA INSHOOTLAR
SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.T/FM.61.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TILOVOV OTAJON O'KTAMOVICH

**ELASTIK VA TERMOELASTIK CHEGARAVIY MASALALARNI
KUCHLANISHLARGA NISBATAN SONLI YECHISH**

01.02.04-Deformatsiyalanuvchan qattiq jismlar mexanikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2023.4.PhD/FM962 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<https://instmech.academy.uz>) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy raxbar:

Xaldjigitov Abduvali Abdisamadovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xusanov Baxtiyor Ergashbaevich
fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Safarov Ismoil Ibrohimovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent Davlat Transport Universiteti.

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi M.T.O'rozboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.t/fm.61.01 raqamli Ilmiy kengashining 2024 yil «15» yanvar soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100047, Toshkent sh., Do'rmon yo'li ko'chasi, 40-uy.320-majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-71-52, faks: (+99871) 262-71-32, e-mail: instmech@academy.uz.)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi M.T.O'rozboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (24 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent sh., Do'rmon yo'li ko'chasi, 40-uy. M.T.O'rozboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti, ARM bo'limi. Tel.: (+99871) 262-71-52, e-mail: instmech@academy.uz.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «26» dekabr kuni tarqatildi.
(2024yil «24» dekabrda 24-raqamli reester bayonnomasi).

M.Mirsaidov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor., O'zR FA akademigi

M.K.Usarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f-m.f.d., professor

R.A.Abirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f-m.f.d., k.i.x.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda fan va zamonaviy texnologiyalar sohasida olib borilayotgan izlanishlarda turli xil konstruksiyalar va ular elementlarining mustahkamlik zahiralarini aniqlash muhim rol o'ynaydi. Mustahkamlik zahiralarini aniqlash, odatda deformatsiyalanuvchi qattiq jismlardan yasalgan konstruksiyalarda kuchlanishlarning tarqalishini o'rganishga va xavfli maksimal qiymatlarini aniqlashga keltiriladi. Shu jihatdan jahon miqyosida, turli ob'ektlar va ular qismlarining mustahkamlik zahiralarini aniqlash, tajribalarga asoslangan empirik formulalarga yoki ko'chish vektorlariga nisbatan chegaraviy masalarni sonli yechishga va ular yordamida zaruriy kuchlanishlarni hisoblashga asoslangan. Kuchlanishlarni ko'chishlar orqali sonli hisoblashda, tabiiy ravishda ma'lum approksimatsiya xatoliklariga yo'l qo'yiladi va u mustahkamlik zahiralarining aniqligiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Jahonda turli ob'ektlar va ular qismlarining mustahkamlik zahiralarini aniqlashda, odatiy ko'chish funksiyalaridan tashqari kuchlanish va deformatsiyalarga asoslangan matematik modellarni qurish keng tadqiq etilmoqda. Ayniqsa, kuchlanishlarga asoslangan modellarga, u samarali bo'lganligi uchun, oxirgi paytlarda olimlar tomonidan alohida e'tiborga sazovor bo'lmoqda. Shu sababli kuchlanishlarga nisbatan deformatsiyalanuvchan qattiq jismlar mexanikasining ikki va uch o'lchovli chegaraviy masalalarni tuzish asosan kuchlanish funksiyasini kiritish orqali kuchlanishlarni aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda bino va inshootlarining konstruksiyalarni mustahkamlik zahiralarini yanada aniqroq va samarali usullarda aniqlash masalasi deformatsiyalanuvchan qattiq jismlar mexanikasining xalqaro miqyosdagi dolzarb muammolaridan biridir. Ushbu muammolarni mazkur tadqiqotda taklif qilingan usullar yordamida qisman hal qilish mumkin.

Respublikamizda fundamental fanlar va axborot texnologiyalari doirasida matematika, amaliy matematika va matematik modellashtirish hamda sonli modellashtirishning rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, chiziqli va nochiziqli deformatsiyalanish jarayonlarini matematik va sonli modellashtirish, hamda chekli-ayirmali usul, oshkor va oshkormas sxemalar, ketma-ket yaqinlashish usullarini takomillashtirish bo'yicha salmoqli natijalarga erishildi. "Matematika-fizika, amaliy matematika va matematik modellashtirish" fanining muhim yo'nalishlari bo'yicha xalqaro miqyosda ilmiy tadqiqotlar olib borish fundamental tadqiqotlarning asosiy vazifasi sifatida alohida belgilangan¹. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash doirasida qattiq jismlarning deformatsiyalanish jarayonini matematik va sonli modellashtirish sohasidagi ilmiy tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi. Qaror ijrosini ta'minlashda deformatsiyalarga asoslangan matematik va sonli modellarni qurish va samarali dasturiy ta'minot muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 maydagi "O'zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-144 sonli Farmonida bino va

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 maydagi "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4708-son qarori.

inshootlar zilzilabardoshligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan¹. Qaror ijrosini ta'minlashda kuchlanishlarga nisbatan asoslangan zamonaviy matematik va sonli modellar qurish va ularni samarali sonli yechish va dasturiy ta'minotini yaratish muhim ahamiyatga ega. 2022–2026 yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasida yer osti inshootlarining seysmik mustahkamligi muammolarini hal etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish vazifasi ham belgilab qo'yilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda bino va inshootlarning mustahkamlik zahiralari yuqori aniqlikda hisoblash muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasining fan va texnologiyalar rivojlanishining IV "Matematika, mexanika va informatika" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ma'lumki, deformatsiyalanuvchan qattiq jismlar mexanikasida chiziqli statik chegaraviy masala, muvozanat tenglamasi, Guk qonuni, Koshi munosabati va mos chegaraviy shartlardan tashkil topgan va odatda ko'chish vektori komponentalariga nisbatan Lamé tenglamasiga keltirib olinadi. Zarur kuchlanishlar esa ko'chishlar orqali Guk qonuni yordamida hisoblab olinadi.

Odatda, chegaraviy masalalarini sonli yechishda chekli-ayirmali usul, chekli elementlar usuli, chegaraviy elementlar usuli va boshqa usullar keng foydalaniladi. Mazkur usullar va turli xil modellar O.Zenkevich, B.Pobedrya, V.Kabulov, T. Bo'riyev, M. Mirsaidov, K. Sultonov, M. Aripov, I. N. Molchanov, B. Qurmanboyev, Mirzayev, A. Xaldjigitov, B. Xusanov, A. Abirov va boshqalarning ishlarida qaralgan.

Elastiklik nazariyasining chegaraviy masalalarini kuchlanishlarga nisbatan qo'yilishi deformatsiyalanuvchi qattiq jismlar mexanikasining dolzarb muammosidir. Birinchi marta kuchlanishlarga nisbatan chegaraviy masalalarni shakllantirish Beltrami (1886) va Mitchell (1900) ishlarida, deformatsiyalarning uzluksizligi shartlari ostida ko'rib chiqilgan va oltita differentsial tenglamadan iborat. Ma'lumki, kuchlanishlardagi tekis masalalar, odatda, deformatsiyalarning birgalikdagi sharti $\varepsilon_{x,y} + \varepsilon_{y,x} = 2\varepsilon_{xy,xy}$ asosida, Eri kuchlanish funksiyasiga nisbatan bigarmonik tenglamani yechishga keltiriladi. Eri funksiyasiga o'xshash, Maksvell va Moreraning fazoviy kuchlanish funksiyalari ham ma'lum. Filonenko-Borodich kuchlanish tenzorini trigonometrik funksiyalar qatori sifatida qarab, variatsion usul yordamida fazoviy masalani Maksvell funksiyasiga nisbatan yechishga keltirgan. Konovalov ishlarida kuchlanishlarga oid dinamik chegaraviy masalalar ko'rib chiqilgan. Borodachevning ishlarida Beltrami-Mitchellning oltita tenglamasidan faqat uchta mustaqil ekanligi ko'rsatilgan. Kuchlanishlardagi chegaraviy masalalarning yangicha usulda qo'yilishi Pobedriyaning ishlarida taklif qilingan, xususiyl holda undan Beltrami-Mitchell tenglamalari kelib chiqadi. Erishilgan yutuqlarga qaramasdan, kuchlanishlarga nisbatan chegaraviy masalalarni sonli

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30-maydagi "O'zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-144 sonli Farmoni

yechish ochiqlicha qolmoqda. Mazkur ish, elastiklik va termoelastiklik nazariyasining chegaraviy masalalarini kuchlanishlarga nisbatan shakllantirish va sonli yechishga bag'ishlangan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universiteti "Mexanika va matematik modellashtirish" kafedrasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlariga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi elastiklik va termo-elastiklik nazariyasining chegaraviy masalalarini kuchlanishlarga nisbatan shakllantirish va sonli yechishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

elastiklik nazariyasining tekis masalasini to'g'ridan-to'g'ri kuchlanishlarga nisbatan shakllantirish;

termo-elastiklikning chegaraviy masalalarining kuchlanish va haroratga nisbatan qo'yilishi;

elastiklik va termo-elastiklik nazariyasining tekislik va fazoviy masalalarini kuchlanishlarga nisbatan shakllantirish;

elastik va termo-elastik masalalar uchun chekli-ayirmali tenglamalarni ishlab chiqish;

elastiklik va termo-elastiklik nazariyasining tekislik va fazoviy masalalarini kuchlanishlarga nisbatan sonli yechish.

Tadqiqotning ob'ekti tekis va fazoviy jismlarning mexanik va termomexanik kuchlar ta'sirida deformatsiyalanish jarayonidir.

Tadqiqotning predmeti elastiklik va termo-elastiklik nazariyasining tekis va fazoviy chegaraviy masalalarini kuchlanishlarga nisbatan shakllantirish va sonli yechishdan iborat.

Tadqiqotning usullari deformatsiyalarning birgalikda bo'lish shartiga, mexanika qonunlari doirasidagi Beltrami-Mitchell tenglamalariga, chekli-ayirmali va iteratsion usullar kabi sonli modellashtirish metodlariga, xamda C++ algoritmik tilida dasturlashga asoslangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

elastiklik va termoelastiklik nazariyasi chegaraviy masalalarining bevosita kuchlanishlarga nisbatan yangicha qo'yilishi taklif etilgan (Eri kuchlanish funksiyalardan foydalanmagan holda);

elastiklik va termoelastiklik nazariyasining tekis va fazoviy masalalari uchun kuchlanishlarga nisbatan sonli modellari yaratilgan, algoritmi ishlab chiqilgan va iteratsiya usuli bilan sonli yechilgan;

to'g'ri to'rtburchakli plastina va parallelepipedlar uchun kuchlanishlarga nisbatan qo'yilgan elastik va termoelastik masalalar turli xil termomexanik yuklanishlarda chegaraviy shartlarda sonli yechildi va ma'lum yechimlar bilan solishtirildi;

kuchlanishlarga nisbatan qo'yilgan elastiklik va termoelastik chegaraviy masalalarning sonli yechimlarining aniqligi ko'chishlarga nisbatan qo'yilgan masalalarga nisbatan yuqori ekanligi ko'rsatilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ob'ektlarning (konstruktsiyalar va ular elementlari) mustahkamlik zahiralarini samaraliroq aniqlashga imkon beradigan matematik model yaratilgan;

deformatsiyalanuvchi qattiq jismlarda kuchlanishlarning tarqalishini o'rganishga imkon beradigan dasturiy ta'minot ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi elastik va termo-elastik masalalar qo'yilishining qat'iyligi, sonli natijalarning aniq yechim va ma'lum yechimlar bilan taqqoslanganligi, shuningdek, hisoblash tajribalarini o'tkazish orqali ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, adabiyotlarda ma'lum bo'lgan masalalar farqli ravishda, elastik va termo-elastik chegaraviy masalalarning aynan kuchlanishlarga nisbatan qo'yilganligi va deformatsiyalanuvchi qattiq jismlarning mustahkamlik zahiralarini samaraliroq va yanada ishonchliroq aniqlashga imkon berishligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, sonli modellarning kuchlanishlarga nisbatan qurilganligi, va ularni sonli yechish algoritmi va dasturlar majmuasining yaratilganligi, hamda ob'ektlarning mustahkamlik zahiralarini samaraliroq aniqlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bino va inshootlarning mustahkamlik zaxiralarini to'g'ridan-to'g'ri kuchlanishlarga nisbatan aniqlash usulini ishlab chiqish bo'yicha dissertatsiya ishida olingan natijalar asosida

elastiklik va termo-elastiklik nazariyasining kuchlanishlarga nisbatan tekis va fazoviy masalalarini sonli yechish usullari yordamida qurilish tashkilotlarida binolarni loyihalashda, mustahkamlik va ishonchlilik zaxiralarini aniqlashda foydalanilgan. (Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi 2024 yil 26-iyundagi 14-06/6476-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarni qo'llash, mehnat unumdorligini 10-12 foizga oshirishga, tannarxni 10-15 foizga kamaytirishga imkon bergan. **Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan 5 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 2 ta xorijiy (barchasi SCOPUS ma'lumotlar bazasida) va 3 ta respublika jurnallarida nashr etilgan, 1 ta EHM uchun dasturiy mahsulotga guvohnoma olingan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 91 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi belgilangan. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy

tadqiqotlarga sharh berilgan va muammoning o'rganilganlik darajasi muhokama qilingan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, tadqiqot ob'ekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari taqdim etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Elastiklik nazariyasi chegaraviy masalalarining kuchlanishlarga nisbatan qo'yilishi”** nomli birinchi bobi elastiklik nazariyasi masalalarini kuchlanishlarga nisbatan qo'yilishiga bag'ishlangan.

1.1 paragrafda deformatsiyalarning birgalikda bo'lish sharti va uning kuchlanishlarga nisbatan ko'rinishi keltirilgan.

Ma'lumki, deformatsiyalarning birgalikda bo'lish sharti (Sen-Venan sharti) quyidagi ko'rinishga ega:

$$\nabla^2 \varepsilon_{ij} + \theta_{,ij} - \varepsilon_{ik,kj} - \varepsilon_{jk,ki} = 0, \quad \theta = \varepsilon_{kk} \quad (1)$$

yoki yoyilgan holatda 6 ta munosabatdan iborat

$$\frac{\partial^2 \varepsilon_x}{\partial x_2^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_y}{\partial x_1^2} = 2 \frac{\partial^2 \varepsilon_{xy}}{\partial x_1 \partial x_2},$$

$$\frac{\partial^2 \varepsilon_y}{\partial x_3^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_z}{\partial x_2^2} = 2 \frac{\partial^2 \varepsilon_{yz}}{\partial x_2 \partial x_3},$$

$$\frac{\partial^2 \varepsilon_x}{\partial x_3^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_z}{\partial x_1^2} = 2 \frac{\partial^2 \varepsilon_{xz}}{\partial x_1 \partial x_3},$$

$$\frac{\partial}{\partial x_1} \left(-\frac{\partial \varepsilon_{yz}}{\partial x_1} + \frac{\partial \varepsilon_{xz}}{\partial x_2} + \frac{\partial \varepsilon_{xy}}{\partial x_3} \right) = \frac{\partial^2 \varepsilon_x}{\partial x_2 \partial x_3},$$

$$\frac{\partial}{\partial x_2} \left(-\frac{\partial \varepsilon_{xz}}{\partial x_2} + \frac{\partial \varepsilon_{xy}}{\partial x_3} + \frac{\partial \varepsilon_{yz}}{\partial x_1} \right) = \frac{\partial^2 \varepsilon_y}{\partial x_1 \partial x_3},$$

$$\frac{\partial}{\partial x_3} \left(-\frac{\partial \varepsilon_{xy}}{\partial x_3} + \frac{\partial \varepsilon_{yz}}{\partial x_1} + \frac{\partial \varepsilon_{xz}}{\partial x_2} \right) = \frac{\partial^2 \varepsilon_z}{\partial x_1 \partial x_2}.$$

Guk qonunini yordamida

$$\varepsilon_{ij} = \frac{1}{2\mu} \left(\sigma_{ij} - \frac{\nu}{1+\nu} \delta_{ij} \sigma \right) \quad (2)$$

Sen-Venan shartini kuchlanishlarga nisbatan quyidagicha yozib olish mumkin

$$\begin{aligned} \frac{\partial^2 \sigma_x}{\partial x_2^2} + \frac{\partial^2 \sigma_y}{\partial x_1^2} - \frac{\nu}{1+\nu} \left(\frac{\partial^2 \sigma}{\partial x_1^2} + \frac{\partial^2 \sigma}{\partial x_2^2} \right) &= 2 \frac{\partial^2 \sigma_{xy}}{\partial x_1 \partial x_2}, \\ \frac{\partial^2 \sigma_y}{\partial x_3^2} + \frac{\partial^2 \sigma_z}{\partial x_2^2} - \frac{\nu}{1+\nu} \left(\frac{\partial^2 \sigma}{\partial x_3^2} + \frac{\partial^2 \sigma}{\partial x_2^2} \right) &= 2 \frac{\partial^2 \sigma_{yz}}{\partial x_2 \partial x_3}, \end{aligned} \quad (3)$$

$$\begin{aligned} \frac{\partial^2 \sigma_x}{\partial x_3^2} + \frac{\partial^2 \sigma_z}{\partial x_1^2} - \frac{\nu}{1+\nu} \left(\frac{\partial^2 \sigma}{\partial x_3^2} + \frac{\partial^2 \sigma}{\partial x_1^2} \right) &= 2 \frac{\partial^2 \sigma_{xz}}{\partial x_1 \partial x_3}, \\ \frac{\partial}{\partial x_1} \left(\frac{\partial \sigma_{xz}}{\partial x_2} + \frac{\partial \sigma_{xy}}{\partial x_3} - \frac{\partial \sigma_{yz}}{\partial x_1} \right) &= \frac{\partial^2}{\partial x_2 \partial x_3} \left(\sigma_x - \frac{\nu}{1+\nu} \sigma \right), \\ \frac{\partial}{\partial x_2} \left(\frac{\partial \sigma_{xy}}{\partial x_3} + \frac{\partial \sigma_{yz}}{\partial x_1} - \frac{\partial \sigma_{xz}}{\partial x_2} \right) &= \frac{\partial^2}{\partial x_3 \partial x_1} \left(\sigma_y - \frac{\nu}{1+\nu} \sigma \right), \\ \frac{\partial}{\partial x_3} \left(\frac{\partial \sigma_{yz}}{\partial x_1} + \frac{\partial \sigma_{xz}}{\partial x_2} - \frac{\partial \sigma_{xy}}{\partial x_3} \right) &= \frac{\partial^2}{\partial x_1 \partial x_2} \left(\sigma_z - \frac{\nu}{1+\nu} \sigma \right). \end{aligned} \quad (4)$$

1.2 paragrafda Beltrami-Mitchell tenglamalari va Pobedriyaning kuchlanishlarga nisbatan yangi chegaraviy masalasining qo‘yilishi ko‘rsatib o‘tilgan. Odatda, kuchlanishlarga nisbatan qo‘yilgan chegaraviy masala muvozanat tenglamasi:

$$\sigma_{ij,j} + X_i = 0, \quad x_i \in V, \quad i = 1, 2, 3 \quad (5)$$

Beltrami-Mitchell tenglamasi:

$$\nabla^2 \sigma_{ij} + \frac{1}{1+\nu} S_{,ij} = -(X_{i,j} + X_{j,i}) - \frac{\nu}{1-\nu} \delta_{ij} X_{k,k}, \quad S = \sigma_{kk}, \quad (6)$$

va quyidagi chegaraviy shartlardan iborat

$$\sigma_{ij} \cdot n_j \Big|_{\Sigma_2} = S_i \quad (7)$$

bu yerda X_i – xajmiy kuchlar, n_j – tashqi normal, Σ_1 -sitr, S_i sirt kuchi.

(5), (6) va (7) tenglamalar sistemasining to‘la bo‘lishini ta’minlash uchun Pobedriya tavsiyasiga asosan muvozanat tenglamasini chegarada qaraymiz

$$\sigma_{ij,j} \Big|_{\Sigma} = -X_i \Big|_{\Sigma}. \quad (8)$$

Pobedriya tomonidan taklif etilgan, kuchlanishlarga nisbatan yangi masala quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\begin{aligned} \Delta \sigma_{ij} + b \sigma_{kk,ij} + c \sigma_{mn,mn} \delta_{ij} - e \Delta \sigma_{kk} \delta_{ij} + \\ + a [\sigma_{ik,kj} + \sigma_{jk,ki}] = -(a+1)(F_{i,j} + F_{j,i} + \frac{1-b-e}{2b-1} F_{k,k} \delta_{ij}), \end{aligned} \quad (9)$$

chegaraviy shartlar quyidagilardan iborat:

$$\sigma_{ij} \cdot n_j \Big|_{\Sigma_1} = \sigma_i, \quad (10)$$

$$\sigma_{ij,j} \Big|_{\Sigma} = -X_i \Big|_{\Sigma}. \quad (11)$$

bu yerda a -, b -, c -, e - lar o'zgarimas koefssientlar.

1.3 paragraf elastiklik nazariyasining tekis va fazoviy masalalarini kuchlanishlarga nisbatan qo'yilishiga bag'ishlangan. Elastiklik nazariyasining tekis masalasini kuchlanishlarga nisbatan A,B,C,D va E kabi bir necha ko'rinishdagi chegaraviy masalalar sifatida qo'yish mumkinligi ko'rsatib o'tilgan. **A masala** quyidagi muvozanat tenglamasidan

$$\begin{aligned}\frac{\partial \sigma_x}{\partial x} + \frac{\partial \sigma_{xy}}{\partial y} &= 0, \\ \frac{\partial \sigma_{xy}}{\partial x} + \frac{\partial \sigma_y}{\partial y} &= 0,\end{aligned}\tag{12}$$

va deformatsiyaning birgalikda bo'lish shartidan iborat

$$\frac{\partial^2 \varepsilon_x}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \varepsilon_y}{\partial x^2} = 2 \frac{\partial^2 \varepsilon_{xy}}{\partial x \partial y}.\tag{13}$$

Ma'lumki, (13)-tenglamani, muvozanat tenglamasi va Guk qonuni yordamida garmonik tenglama ko'rinishida yozib olish mumkin

$$\nabla^2(\sigma_x + \sigma_y) = 0\tag{14}$$

bu yerda ∇^2 – Laplas operatori.

Odatda, elastiklik nazariyasida **A masalani** yechish, muvozanat tenglamasini qanoatlantiruvchi quyidagi Eri funksiyalarni

$$\sigma_x = \frac{\partial^2 \varphi}{\partial y^2}, \quad \sigma_y = \frac{\partial^2 \varphi}{\partial x^2}, \quad \sigma_{xy} = -\frac{\partial^2 \varphi}{\partial x \partial y},\tag{15}$$

(14)-tenglamaga qo'yish orqali, quyidagi bigarmonik tenglamani yechishga keltirib olinadi

$$\nabla^2 \nabla^2 \varphi = 0.\tag{16}$$

B masala esa yuqoridagi (12) muvozanat tenglamasi va kuchlanishlarga nisbatan yozilgan deformatsiyalarning birgalikda bo'lish sharti yordamida hosil qilinadi:

$$\frac{\partial^2 \sigma_x}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \sigma_y}{\partial x^2} = 2 \frac{\partial^2 \sigma_{xy}}{\partial x \partial y}.\tag{17}$$

C masala esa (12) muvozanat tenglamalari va Beltrami-Mitchellning quyidagi uchinchi tenglamasida yordamida hosil qilish mumkin:

$$\frac{\partial^2 \sigma_{xy}}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \sigma_{xy}}{\partial y^2} + \frac{1}{1+\nu} \left(\frac{\partial^2 \sigma_x}{\partial x \partial y} + \frac{\partial^2 \sigma_y}{\partial x \partial y} \right) = 0.\tag{18}$$

D masala esa muvozanat tenglamalaridan mos ravishda x va y bo'yicha hosila olishdan hosil bo'lgan tenglamalar va Beltrami-Mitchellning uchinchi tenglamasi (18) dan hosil qilingan, ya'ni:

$$\begin{aligned}
\frac{\partial^2 \sigma_x}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \sigma_{xy}}{\partial x \partial y} &= 0, \\
\frac{\partial^2 \sigma_y}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \sigma_{xy}}{\partial x \partial y} &= 0, \\
\frac{\partial^2 \sigma_{xy}}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \sigma_{xy}}{\partial y^2} + \frac{1}{1+\nu} \left(\frac{\partial^2 \sigma_x}{\partial x \partial y} + \frac{\partial^2 \sigma_y}{\partial x \partial y} \right) &= 0.
\end{aligned} \tag{19}$$

E masala esa Pobedriyaning yangi tenglamalaridan iborat:

$$\begin{aligned}
d \frac{\partial^2 \sigma_x}{\partial x^2} + (1-e) \frac{\partial^2 \sigma_x}{\partial y^2} + (b-e) \left(\frac{\partial^2 \sigma_y}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \sigma_y}{\partial y^2} \right) + 2(b+a) \frac{\partial^2 \sigma_{xy}}{\partial x \partial y} &= 0, \\
d \frac{\partial^2 \sigma_y}{\partial y^2} + (1-e) \frac{\partial^2 \sigma_y}{\partial x^2} + (b-e) \left(\frac{\partial^2 \sigma_x}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \sigma_x}{\partial y^2} \right) + 2(b+a) \frac{\partial^2 \sigma_{xy}}{\partial x \partial y} &= 0, \\
(1+a) \frac{\partial^2 \sigma_{xy}}{\partial x^2} + (1+a) \frac{\partial^2 \sigma_{xy}}{\partial y^2} + (b+a) \left(\frac{\partial^2 \sigma_x}{\partial x \partial y} + \frac{\partial^2 \sigma_y}{\partial x \partial y} \right) &= 0.
\end{aligned} \tag{20}$$

bu yerda $d = 1 + b + c + 2a - e$ o'zgarmlar.

Yuqoridagi barcha **A, B, C, D, E masalalar** uchun chegaraviy va qo'shimcha chegaraviy shartlarni quyidagi ko'rinishda olamiz:

$$\begin{aligned}
(\sigma_x n_1 + \sigma_{xy} n_2) \Big|_{\Gamma} = S_1, \quad (\sigma_{xy} n_1 + \sigma_y n_2) \Big|_{\Gamma} = S_2 \\
\left(\frac{\partial \sigma_x}{\partial x} + \frac{\partial \sigma_{xy}}{\partial y} \right) \Big|_{\Gamma} = 0, \quad \left(\frac{\partial \sigma_y}{\partial y} + \frac{\partial \sigma_{xy}}{\partial x} \right) \Big|_{\Gamma} = 0.
\end{aligned} \tag{21}$$

Yuqorida keltirilgan **B, C, D, E masalalar** (**A masaladan** tashqari) to'g'ridan-to'g'ri kuchlanishlarga nisbatan yechishga olib kelingan.

Xuddi yuqoridagidek, elastiklik nazariyasining fazoviy chegaraviy masalasini, uchta muvozanat tenglamasi va Beltrami-Mitchellning (6) 2-guruh tenglamalaridan yordamida hosil qilish mumkin, ya'ni

$$\begin{aligned}
\frac{\partial \sigma_x}{\partial x} + \frac{\partial \sigma_{xy}}{\partial y} + \frac{\partial \sigma_{xz}}{\partial z} &= 0, \\
\frac{\partial \sigma_{xy}}{\partial x} + \frac{\partial \sigma_y}{\partial y} + \frac{\partial \sigma_{yz}}{\partial z} &= 0, \\
\frac{\partial \sigma_{xz}}{\partial x} + \frac{\partial \sigma_{yz}}{\partial y} + \frac{\partial \sigma_z}{\partial z} &= 0,
\end{aligned} \tag{22}$$

$$\begin{aligned}
\frac{\partial^2 \sigma_{xy}}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \sigma_{xy}}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \sigma_{xy}}{\partial z^2} + \frac{1}{1+\nu} \left(\frac{\partial^2 \sigma_x}{\partial x \partial y} + \frac{\partial^2 \sigma_y}{\partial x \partial y} + \frac{\partial^2 \sigma_z}{\partial x \partial y} \right) &= 0, \\
\frac{\partial^2 \sigma_{xz}}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \sigma_{xz}}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \sigma_{xz}}{\partial z^2} + \frac{1}{1+\nu} \left(\frac{\partial^2 \sigma_x}{\partial x \partial z} + \frac{\partial^2 \sigma_y}{\partial x \partial z} + \frac{\partial^2 \sigma_z}{\partial x \partial z} \right) &= 0, \\
\frac{\partial^2 \sigma_{yz}}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \sigma_{yz}}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \sigma_{yz}}{\partial z^2} + \frac{1}{1+\nu} \left(\frac{\partial^2 \sigma_x}{\partial y \partial z} + \frac{\partial^2 \sigma_y}{\partial y \partial z} + \frac{\partial^2 \sigma_z}{\partial y \partial z} \right) &= 0,
\end{aligned}$$

Chegaraviy shartlar

$$\begin{aligned}
(\sigma_x n_1 + \sigma_{xy} n_2 + \sigma_{xz} n_3) \Big|_{\Sigma_2} &= S_1, \\
(\sigma_{xy} n_1 + \sigma_y n_2 + \sigma_{yz} n_3) \Big|_{\Sigma_2} &= S_2, \\
(\sigma_{xz} n_1 + \sigma_{yz} n_2 + \sigma_z n_3) \Big|_{\Sigma_2} &= S_3,
\end{aligned} \tag{23}$$

qo‘shimcha chegaraviy shartlar esa quyidagilardan iborat:

$$\begin{aligned}
\left(\frac{\partial \sigma_x}{\partial x} + \frac{\partial \sigma_{xy}}{\partial y} + \frac{\partial \sigma_{xz}}{\partial z} \right) \Big|_{\Sigma} &= 0, \\
\left(\frac{\partial \sigma_y}{\partial y} + \frac{\partial \sigma_{xy}}{\partial x} + \frac{\partial \sigma_{yz}}{\partial z} \right) \Big|_{\Sigma} &= 0, \\
\left(\frac{\partial \sigma_{xz}}{\partial x} + \frac{\partial \sigma_{yz}}{\partial y} + \frac{\partial \sigma_z}{\partial z} \right) \Big|_{\Sigma} &= 0.
\end{aligned} \tag{24}$$

Dissertatsiyaning **“Kuchlanishlarga nisbatan termo-elastiklik masalalar”** nomli ikkinchi bobi, termo-elastiklik nazariyasining tekis va fazoviy masalalarini kuchlanishlarga nisbatan qo‘yilishiga bag‘ishlangan.

2.1 paragrafda Beltrami-Mitchell tenglamalarining haroratni e‘tibotga olgan holda ko‘rinishi keltirib chiqarilgan

$$\nabla^2 \sigma_{ij} + \frac{1}{1+\nu} S_{,ij} = -(X_{i,j} + X_{j,i}) - \frac{\nu}{1-\nu} X_{k,k} \delta_{ij} - 2\mu\alpha(T_{,ij} + \frac{1+\nu}{1-\nu} \delta_{ij} \nabla^2 T). \tag{25}$$

bu yerda α -issiqlik kengayish koeffsienti.

2.2 paragrafda termo-elastiklik nazariyasining tekis masalasini quyidagi yangi ko‘rinishga keltirilgan

$$\begin{aligned}
\nabla^2 \sigma_x &= -2\mu\alpha \left(\left(1 + \frac{1}{\nu}\right) \frac{\partial^2 T}{\partial x^2} + \frac{1+\nu}{1-\nu} \nabla^2 T \right), \\
\nabla^2 \sigma_y &= -2\mu\alpha \left(\left(1 + \frac{1}{\nu}\right) \frac{\partial^2 T}{\partial y^2} + \frac{1+\nu}{1-\nu} \nabla^2 T \right), \\
\nabla^2 \sigma_{xy} &= -\frac{2\mu\alpha(1+\nu)}{\nu} \frac{\partial^2 T}{\partial x \partial y}.
\end{aligned} \tag{26}$$

Chegaraviy va qo‘shimcha shartlar quyidagi ko‘rinishga ega

$$(\sigma_x n_1 + \sigma_{xy} n_2) \Big|_{\Gamma} = S_1, \quad (\sigma_{xy} n_1 + \sigma_y n_2) \Big|_{\Gamma} = S_2, \tag{27}$$

$$\left(\frac{\partial \sigma_x}{\partial x} + \frac{\partial \sigma_{xy}}{\partial y} \right) \Big|_{\Gamma} = 0, \quad \left(\frac{\partial \sigma_y}{\partial y} + \frac{\partial \sigma_{xy}}{\partial x} \right) \Big|_{\Gamma} = 0. \tag{28}$$

2.3 paragrafda termo-elastiklik nazariyasining fazoviy masalasining qo‘yilishi keltirilgan. (25)-tenglamada, xajmiy kuchlar yo‘q deb faraz qilinsa fazoviy masala quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi

$$\begin{aligned}\frac{\partial^2 \sigma_x}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \sigma_x}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \sigma_x}{\partial z^2} &= 2\mu\alpha \frac{1+\nu}{1-\nu} \left(\frac{\partial^2 T}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 T}{\partial z^2} \right), \\ \frac{\partial^2 \sigma_y}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \sigma_y}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \sigma_y}{\partial z^2} &= 2\mu\alpha \frac{1+\nu}{1-\nu} \left(\frac{\partial^2 T}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 T}{\partial z^2} \right),\end{aligned}\quad (29)$$

$$\begin{aligned}\frac{\partial^2 \sigma_z}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \sigma_z}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \sigma_z}{\partial z^2} &= 2\mu\alpha \frac{1+\nu}{1-\nu} \left(\frac{\partial^2 T}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 T}{\partial y^2} \right), \\ \frac{\partial^2 \sigma_{xy}}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \sigma_{xy}}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \sigma_{xy}}{\partial z^2} &= 2\mu\alpha \frac{1+\nu}{1-\nu} \frac{\partial^2 T}{\partial x \partial y}, \\ \frac{\partial^2 \sigma_{xz}}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \sigma_{xz}}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \sigma_{xz}}{\partial z^2} &= 2\mu\alpha \frac{1+\nu}{1-\nu} \frac{\partial^2 T}{\partial x \partial z}, \\ \frac{\partial^2 \sigma_{yz}}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 \sigma_{yz}}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 \sigma_{yz}}{\partial z^2} &= 2\mu\alpha \frac{1+\nu}{1-\nu} \frac{\partial^2 T}{\partial y \partial z}.\end{aligned}\quad (30)$$

Chegaraviy shartlari esa yuqoridagi (23-24) kabi bo‘ladi.

2.4 paragraf qisman bog‘langan termo-elastiklik chegaraviy masalani qo‘yilishiga bag‘ishlangan. Yuqoridagi (25) tenglamani ikki o‘lchovli holda quyidagicha yozib olamiz

$$\begin{aligned}\nabla^2 \sigma_x &= -2\mu\alpha \left(\left(1 + \frac{1}{\nu}\right) \frac{\partial^2 T}{\partial x^2} + \frac{1+\nu}{1-\nu} \nabla^2 T \right), \\ \nabla^2 \sigma_y &= -2\mu\alpha \left(\left(1 + \frac{1}{\nu}\right) \frac{\partial^2 T}{\partial y^2} + \frac{1+\nu}{1-\nu} \nabla^2 T \right), \\ \nabla^2 \sigma_{xy} &= -\frac{2\mu\alpha(1+\nu)}{\nu} \frac{\partial^2 T}{\partial x \partial y}.\end{aligned}\quad (31)$$

Issiqlik o‘tkazuvchanlik tenglamasi esa quyidagi ko‘rinishga ega

$$\lambda_0 \left(\frac{\partial^2 T}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 T}{\partial y^2} \right) - c_\varepsilon \frac{\partial T}{\partial t} - T\alpha(3\lambda + 2\mu) \frac{\partial(\varepsilon_{11} + \varepsilon_{11})}{\partial t} = 0. \quad (32)$$

Statik holda (32) tenglama quyidagi ko‘rinishga keladi

$$\frac{\partial^2 T}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 T}{\partial y^2} = 0 \quad (33)$$

chegaraviy shart va qo‘shimcha chegaraviy shartlar quyidagicha bo‘ladi.

$$\left(\sigma^x n_1 + \sigma^{xy} n_2 \right) \Big|_\Gamma = S_1, \quad \left(\sigma^{xy} n_1 + \sigma^y n_2 \right) \Big|_\Gamma = S_2, \quad (34)$$

$$T \Big|_\Gamma = f,$$

$$\left(\frac{\partial \sigma_x}{\partial x} + \frac{\partial \sigma_{xy}}{\partial y} \right) \Big|_\Gamma = 0, \quad \left(\frac{\partial \sigma_y}{\partial y} + \frac{\partial \sigma_{xy}}{\partial x} \right) \Big|_\Gamma = 0. \quad (35)$$

(31), (33) va (34-35) tenglamalar qisman bog‘langan termo-elastiklik chegaraviy masalani tashkil etadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Kuchlanishlarga nisbatan qo‘yilgan elastiklik va termo-elastiklik masalalarning diskret hollari va ularni sonli yechish usullari**” ga bag‘ishlangan. Ushbu bob oldingi boblarda ko‘rib chiqilgan kuchlanishlar nisbatan qo‘yilgan elastik va termo-elastik chegaraviy masalalar uchun chekli ayirmali tenglamalarni qurishga bag‘ishlangan. Xususan, elastiklik nazariyasining **B**, **C** va **D** tekis chegaraviy masalalariga mos chekli-ayirmali tenglamalar qurilgan. Shuningdek, tekis va fazoviy termo-elastiklik masalalar uchun ham chekli ayirmali tenglamalari tuzilgan.

3.1 paragrafda, **B**, **C** va **D** masalalar to‘g‘ri to‘rtburchak(2a,2b) soxada qaralgan. **D** masala uchun chekli-ayirmali tenglamalarni keltirish bilan cheklanamiz

$$\begin{aligned} \frac{\sigma_{i+1,j}^x - 2\sigma_{i,j}^x + \sigma_{i-1,j}^x}{h_1^2} + \frac{\sigma_{i+1,j+1}^{xy} - \sigma_{i+1,j-1}^{xy} - \sigma_{i-1,j+1}^{xy} + \sigma_{i-1,j-1}^{xy}}{4h_1h_2} &= 0, \\ \frac{\sigma_{i,j+1}^y - 2\sigma_{i,j}^y + \sigma_{i,j-1}^y}{h_2^2} + \frac{\sigma_{i+1,j+1}^{xy} - \sigma_{i-1,j+1}^{xy} - \sigma_{i+1,j-1}^{xy} + \sigma_{i-1,j-1}^{xy}}{4h_1h_2} &= 0, \\ \frac{\sigma_{i+1,j}^{xy} - 2\sigma_{ij}^{xy} + \sigma_{i-1,j}^{xy}}{h_1^2} + \frac{\sigma_{i,j+1}^{xy} - 2\sigma_{ij}^{xy} + \sigma_{i,j-1}^{xy}}{h_2^2} + \\ \frac{1}{1+\nu} \left\{ \frac{\sigma_{i+1,j+1}^x - \sigma_{i-1,j+1}^x - \sigma_{i+1,j-1}^x + \sigma_{i-1,j-1}^x}{4h_1h_2} + \frac{\sigma_{i+1,j+1}^y - \sigma_{i-1,j+1}^y - \sigma_{i+1,j-1}^y + \sigma_{i-1,j-1}^y}{4h_1h_2} \right\} &= 0 \end{aligned} \quad (36)$$

Chegaraviy shartlar sifatida to‘g‘ri to‘rtburchakni OX o‘qi bo‘yicha cho‘zuvchi S kuch qaralgan, ya’ni

$x = \mp a$: da

$$\begin{aligned} \sigma_{x \ 0j}^{(0)} = S, \quad \sigma_{xy \ 0j}^{(0)} = 0, \\ \sigma_{x \ N_1j}^{(0)} = S, \quad \sigma_{xy \ N_1j}^{(0)} = 0. \end{aligned} \quad (37)$$

$y = \mp b$: da

$$\begin{aligned} \sigma_{y \ i0}^{(0)} = 0, \quad \sigma_{xy \ i0}^{(0)} = 0, \\ \sigma_{y \ iN_2}^{(0)} = 0, \quad \sigma_{xy \ iN_2}^{(0)} = 0. \end{aligned} \quad (38)$$

Qo‘shimcha chegaraviy shartlar esa quyidagicha berilgan

$x = \mp a$: da

$$\begin{aligned} \sigma_{y \ 0j}^{(0)} = \sigma_{y \ 0,j+1}^{(0)} + h_2 \frac{\sigma_{xy \ 1j}^{(0)} - \sigma_{xy \ 0j}^{(0)}}{h_1}, \\ \sigma_{y \ n_1j}^{(0)} = \sigma_{y \ n_1,j+1}^{(0)} + h_2 \frac{\sigma_{xy \ n_1,j}^{(0)} - \sigma_{xy \ n_1-1,j}^{(0)}}{h_1}. \end{aligned} \quad (39)$$

$y = \mp b$: da


